

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**AMONOVA DILAFRUZ SHAXRIYORXONOVNA**

**KOREYS VA O‘ZBEK AYOLLAR NASRI POETIKASI  
(Pak Kyong Ni va Saida Zunnunova ijodi misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Amonova Dilafruz Shaxriyorkhonovna**

Koreys va o‘zbek ayollar nasri poetikasi (Pak Kyong Ni va Saida Zunnunova  
ijodi misolida) ..... 3

**Амонова Дилафруз Шахриёрхоновна**

Поэтика корейской и узбекской женской прозы (на примере творчества  
Пак Кёг Ни и Саиды Зунновой) ..... 25

**Amonova Dilafruz Shakhriyorkhonovna**

The poetics of korean and uzbek women’s prose (a study based on the works of  
Pak Kyong Ni and Saida Zunnunova) ..... 45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 49

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**AMONOVA DILAFRUZ SHAXRIYORXONOVNA**

**KOREYS VA O‘ZBEK AYOLLAR NASRI POETIKASI  
(Pak Kyong Ni va Saida Zunnunova ijodi misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Fil3049 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasining [www.samdhti.uz](http://www.samdhti.uz) hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Umurova Guzal Xotamovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponenlar:**

**Qarshibayeva Uljan Davirovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Abbasova Dilfuza Karimbek qizi**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston jahon tillari universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel.: (99866) 238-29-37; faks: (99878) 210-00-18; e-mail: [info@samdhti.uz](mailto:info@samdhti.uz)).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel.: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi № \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**N.Z.Nasrullayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**O'.O'.Qo'ldoshov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**D.A.Kiselyov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Mavzuning dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida ijodiy jarayon va uning laboratoriyasiga katta ahamiyat qaratilmoqda. Ayniqsa, bir-biriga yaqin bo'lgan xalqlar adabiyoti yoki, umuman, bir-biridan uzoq bo'lgan xalqlar adabiyotini qiyosiy o'rganish, shu asosda ular yaratgan asarlarni jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini aniqlash adabiyotshunoslik oldidagi eng muhim muammolardan biriga aylanib ulgurgan. Jahon adabiyoti arenalarida ayol ijodkorligi, uning obraz yaratishdagi mahorati hamda jamiyatning asosiy muammolariga urg'u berishi kabi tushunchalarning inkishof etilishi borasidagi nazariy qarashlar va hal qiluvchi omillarning muhim o'rin tutganligini aniqlash zarurati yuzaga kelmoqda. Mazkur jarayonda sharq xalqlariga tegishli bo'lgan koreys va o'zbek adabiyotini ayol ijodkorligi va ularning poetik mahorati asosida tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida ayol ijodkorligining nazariy asarlarini o'rganish, obraz yaratish mahorati, milliy qadriyatlar ifodasi, mavzu ko'lami, muallif "men"ini ikki adabiyot: o'zbek va koreys ijodkorligi yuzasidan parallel, yondosh holatda izlanishlar olib borilmoqda. Shu jihatdan o'zbek va koreys adabiyoti ayol ijodkorligini qiyosiy tadqiq etish, ularning ijodiy-estetik tajribalarini aniqlash, oila munosabatlari milliy qadriyatlar asosida oiladagi vafo, sadoqat tushunchalarini tarannum etilganligiga diqqat qaratishga ahamiyat berilmoqda. Ayol ijodiy barkamolligini yuzaga chiqaruvchi ruhiy tovlanishlar va ularning obrazlarining ruhiy kechinmalari bilan bog'liq holdagi jarayonlarni chuqur tekshirishga diqqat qaratilmoqda.

Mamlakatimiz o'z milliy taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ygan keyingi yillarda o'zbek va koreys adabiyotshunosligida jahonning global muammolarini eng sara asarlar orqali o'rganish muhim jarayon hisoblanadi. Xususan, bu jarayonni o'zbek adabiyoti vakilasi bo'lmish Saida Zunnunova hamda koreys adabiyoti vakilasi Pak Kyong Ni (박경리) poetikasini o'rganish orqali madaniyatlararo aloqalarini, poetik mahoratni, obraz yaratishdagi o'ziga xos uslublarni, jamiyatning dolzarb muammolariga urg'u berilishini hamda bu muammoni yetakchi motiv sifatida asarlarida o'rin egallashini aniqlash adabiyotshunoslikdagi ilk urinishlardan biridir. Yosh avlodni milliy qadriyat, urf-odatlar, oilaga munosabat, mehr tushunchalarini yuksaltirish borasida yetakchi ijodkor ayollarning asarlari orqali ta'lim-tarbiya berish bugungi ijtimoiy hayotning zarur bo'lgan vazifalariga aylanib ulgurgan. Zotan, "Yoshlar o'rtasida mamlakatimizning boy tarixini, uning betakror madaniyatini va milliy qadriyatlarini keng targ'ib etish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish"<sup>1</sup> borasida muhim qadam bo'lmog'i mumkin.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2016 йил ижтимоий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи. – Тошкент, 2017 йил, 16 январь. – Б. 4.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ–2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-sonli “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi hamda sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Qiyosiy adabiyotshunoslik sohasini o‘rganish bo‘yicha M.M.Baxtin, A.N.Veselovskiy, V.M.Jirmunskiy, N.I.Konrad, I.K.Gorskiy, P.A.Grinsler, A.Dima, D.Dyureshinlarning tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi.<sup>2</sup> Jahon adabiyotshunosligida esa A.Abbot, M.Dogan va R.Pahre, P.Dillemeijer singari olimlarning tadqiqotlarida kuzatiladi<sup>3</sup>.

Koreys adabiyoti yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarga nazar tashlansa, unda nazm, nasr, dramaturgiya sohasidagi izlanishlarga duch kelish mumkin<sup>4</sup>. Koreys

---

<sup>2</sup> Бахтин М.М. Эстетика словесного творчество. Изд.второе. – М., 1979. – 384 с.; Веселовский А.Н. Историческая поэтика. Высшая школа, 1989. – 316 с. Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение и проблема литературных влияний, «Изв. АН СССР. Отд. обществ. наук», 1936. -№ 3; Конрад Н.И. Запад и Восток. – Москва: Наука, 1966. – 520 с. Горский И.К. Заметки о некоторых понятиях сравнительного литературоведения. – М., 2003. – С. 170. Гринцер П.А. Сравнительное литературоведение и историческая поэтика. Серия литературы и языка. Т.49. -№ 2. – 107 с. Дима А. Принципы сравнительного литературоведения. – М.: Прогресс, 1977. – С. 79. Дюришин Д. Теория сравнительного изучения литературы. – М.: Прогресс, 1979. – С. 100.

<sup>3</sup> Abbot A. (1988). *The System of Professions: An Essay on the Division of Expert Labor*, University of Chicago Press. ISBN 978-0-226-00069-5.; Dogan M. & Pahre R. (1990). “The fate of formal disciplines: from coherence to dispersion”. In *Creative Marginality: Innovation at the Intersections of Social Sciences*. Boulder, CO: Westview. – P.85-113. Dullemeijer P. (1980). “Dividing biology into disciplines: Chaos or multiformity?” *Journal Acta Biotheoretica*, 29(2). – P. 87-93. Fagin R.; Halpern J.Y., Moses Y. & Vardi M.Y. (1995). *Reasoning about Knowledge*, MIT Press. ISBN 0-262-56200-6.

<sup>4</sup> Чо Тониль. *Общая история карейской литературы*. – Сеул, 1989. – 351 с. Цой И.В. *Корейская проза: Новое и традиционное в рассказах Ким Тонина, 1900-1951*. Ли Сан Юн. *Рассказ в творчестве современных писательниц Республики Корея: Пак Вансо, Син Кёнсук и Ын Хигён*. Авт дис. на соискание ученой степени кан.фил.наук. – М., 2008. – С. 20. Троцевич А.Ф. *История корейской традиционной литературы (до XX в.)*, учебное пособие, издательство Санкт-Петербургского университета, 2004. – 323 с. Byeon Gyewon. “Changjak Kugak: writing new music for Korean traditional instruments.” *Thesis*, SOAS, University of London, 2002. Yang Su Jin. “Adapting Korean Cinderella Folklore as Fairy Tales for Children”. *Thesis*, University of Louisiana at Lafayette, 2014. <http://pqdopen.proquest.com/#viewpdf?dispub=3622966>. Son Eun Hye. “Responses of Korean Transnational Children to Picture Books Representing Diverse Population of Korean People and Their Culture.” *The Ohio State University*, 2009. [http://rave.ohiolink.edu/etdc/view?acc\\_num=osu1237988412](http://rave.ohiolink.edu/etdc/view?acc_num=osu1237988412). Chu Sŭng-taek. “Kang

adibasi Pak Kyong Ni (박경리) ijodi nafaqat koreys munaqqidlarini, balki jahon munaqqidlarini ham qiziqtirib qo‘ydi<sup>5</sup>. Natijada Chon Xe Ju (전해주) ijodkorning olimlik va ijodkorlik darajasini tarjima asarlar misolida tadqiq etgan bo‘lsa<sup>6</sup>, Kim In Ken adibaning “Yer” asarini fransuz tili tarjimasidagi muammolari bo‘yicha o‘rganib chiqadi<sup>7</sup>, F.Mariak esa ijodkorning feministik qarashlariga nazar tashlaydi<sup>8</sup>.

O‘zbek adabiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan Saida Zunnunova ijodi ham munaqqidlar tomonidan tadqiq etilgan<sup>9</sup>. Uning adabiy portreti yaratilib, ijodi turli rakurslarda tahlil etiladi. Ammo mashhur koreys ijodkori Pak Kyong Ni (박경리) va o‘zbek adibasi Saida Zunnunova asarlari qiyosiy tadqiq etilmagan, ularning asarlari ijodkor ruhiyati, ayol ruhiyati asosida XX asr o‘zbek va koreys adabiyotiga ta’siri masalasi haligacha to‘liq o‘rganilgani yo‘q.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Samarqand davlat chet tillar instituti koreys adabiyoti kafedrasining “Koreys tili va adabiyoti tadqiqi hamda ta’limining dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Pak Kyong Ni(박경리) va Saida Zunnunova nasrining poetik xususiyatlarini o‘zaro qiyosiy tahlil qilish va ushbu mualliflarning XX asr koreys hamda o‘zbek adabiyotlaridagi rivojiga qo‘shgan hissasini aniqlashdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

koreys va o‘zbek ayollar nasrining poetik xususiyatlari, ayol yozuvchilar ijodiyoti va ularning adabiyotdagi mavqeyi, asarlarning mavzu va g‘oya doirasi hamda oila, muhabbat va jamiyat masalalari, milliy mentalitetning aks ettirilishi va global qadriyatlar bilan uyg‘unligini ochib berish;

Pak Kyong Ni (박경리) va Saida Zunnunova ijodi asosida koreys “ayollar nasri”ning rivojlanishi, uning taraqqiyoti, oilaviy munosabatlar talqini hamda milliylik va universallikning o‘zaro uyg‘unligini aniqlash;

---

Wi ūi sasang kwa munhakkwan e taehan koch‘al.” [Sōul: Sōul Taehakkyo Taehagwōn], 1991. <http://catalog.hathitrust.org/api/volumes/oclc/42586282.html>.

<sup>5</sup> 박경리 강의노트. 문학을 지망하는 젊은이들에게. 현대문학, 서울, 1995. 319p. [Тетрадь лекций Пак Кённи. Молодым людям, мечтающим о литературе. Сеул: Современная литература, 1995.] (На кор. яз.); Жизнь и творчество Пак Кён Ри «как широкое и глубокое море...» //Диалог Россия – Республика Корея (ДРПК). – Сеул: Арым, 2017.

<sup>6</sup> Чон Хеджу. Исследование статуса и значения переведенных произведений корейской писательницы – литератора Пак Кен Ри. // Корееведение в России: направление и развитие. 2021. Т. 2. -№ 2. – С. 6-16.

<sup>7</sup> Ким Ин Кен. Проблемы с французским переводом «Земля» Пак Кен Ри / Ким Ин Кен // Французское литературное образование. – 2008. -№27. – С. 331-352. – Текст: непосредственный.

<sup>8</sup> Мориак Ф. Не покоряться ночи...: Художественная публицистика /пер. сфр.; предисл. В.Е.Балахонова. – М.: Прогресс, 1986.

<sup>9</sup> Фафуров И. Лириканинг юраги. – Тошкент: Ёш гвардия, 1982. Фафуров И. Ўттиз йил изхори. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. Ҳасанова Ҳ. Саида Зуннунова. Адабий портрет. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. Ҳасанова Ҳ. Бахти кулган шоиралар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1976. Ҳасанова Ҳ. Талантли адиба. – Тошкент: ЎзКПМКнинг бирлашган нашриёти, 1968 Ergasheva Sh. Ko‘ngilning mohipaykari. – Toshkent: Universitet, 2006 Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000. Норматов У. Тафаккур ёғдуси. – Тошкент: Фикр-Медия маркази, 2005. Норбоев Б. Истеъдод, эътиқод, замон. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.

adibalarning obraz yaratishdagi mahorati: ayol yozuvchi nigohi asosida qahramon qiyofasi tasviri, ularning ruhiy holat va kechinmalaridagi dramatism, ichki monolog va dialoglarni ifodalashdagi emotsional kayfiyatlar uslubini yuzaga chiqaruvchi omil ekanligini isbotlash;

yoʻzuvchilar ijodida global muammolarning ifoda etilishi, jamiyatning bir koʻrinishi boʻlgan oilaviy munosabatlar, ayol qadri, uning jamiyatdagi oʻrni asosida makon va zamonda yuz beradigan voqelikni ijtimoiy-psixologik farqlar asosida ochib berish;

**Tadqiqotning obyekt**i sifatida Pak Kyong Ni (박경리) qoldirgan boy ijodiy meros hamda Saida Zunnunovaning nasriy asarlarining namunalari tanlangan.

**Tadqiqotning predmet**ini XX asr koreys va oʻzbek adabiyotida nasrning poetik manzaralari sifatida Pak Kyong Ni (박경리) va Saida Zunnunovaning nasri, ularning badiiy olami tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot jarayonida psixologik, analitik, biografik, qiyosiy-tipologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

#### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

koreys va oʻzbek ayollar nasrining poetik xususiyatlari, ayol yozuvchilar ijodiyoti va ularning adabiyotdagi mavqeyi, asarlarning mavzu va gʻoya doirasi hamda oila, muhabbat va jamiyat masalalari, milliy mentalitetning aks ettirilishi va global qadriyatlar bilan uygʻunligi ochib berilgan;

Pak Kyong Ni (박경리) va Saida Zunnunova ijodi asosida koreys “ayollar nasri”ning rivojlanishi, uning taraqqiyoti, oilaviy munosabatlar talqini hamda milliylik va universallikning oʻzaro uygʻunligi aniqlangan;

adibalarning obraz yaratishdagi mahorati: ayol yozuvchi nigohi asosida qahramon qiyofasi tasviri, ularning ruhiy holat va kechinmalaridagi dramatism, ichki monolog va dialoglarning ifodalashdagi emotsional kayfiyatlar uslubini yuzaga chiqaruvchi omil ekanligi isbotlangan;

yoʻzuvchilar ijodida global muammolarning ifoda etilishi, jamiyatning bir koʻrinishi boʻlgan oilaviy munosabatlar, ayol qadri, uning jamiyatdagi oʻrni asosida makon va zamonda yuz beradigan voqelik ijtimoiy-psixologik farqliliklar asosida ochib berilgan;

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari:**

tadqiqot natijalari oʻzbek va koreys adabiyoti vakilalari hisoblangan Saida Zunnunova hamda Pak Kyong Ni (박경리) ijodi ayol ruhiyati muammosi asosida yaxlit monografik tarzda oʻrganilib, ilmiy-nazariy qarashlar asosida ularning nasrdagi poetik mahorati aniqlangan;

ayol ruhiyati, uning oila va jamiyatdagi oʻrni, hayotning global masalalariga munosabatiga doir tabiatiga doir kuzatishlar ijodkor olamini va uning ruhiyatini aniqlash asnosida turli-tuman badiiy usullar vositasida va yoʻsinlar bilan boyib borganligi asoslangan;

ayollar nasrida ichki monolog va dialoglarning muhim atribut ekanligi va nasriy asarlarida obrazlar ruhiyatini yoritishda bu kabi atributlardan unumli foydalanganligi isbotlangan;

Pak Kyong Ni (박경리) hamda Saida Zunnunova nasrida badiiy-estetik

tamoyillar muhim o‘rin tutganligi hamda unda milliy tushunchalar ifodasi jamlanganligi asoslangan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqotda qo‘yilgan muammoning aniqligi, ilmiy manbalar asosida nazariy ma‘lumotlar keltirilganligi, tahlillar esa analitik, qiyosiy-tipologik, biografik, psixologik tahlillar vositasida asoslanganligi, koreys va o‘zbek adabiyoti vakillarining ijodi, ularning nasri ayol ruhiyati yuzasidan qiyoslanganligi, ilmiy xulosalar amaliyotga joriy etilganligi, shuningdek, tadqiqot natijalarining xalqaro hamda mahalliy tadqiqotlar bilan taqqoslanganligi, olingan natijalarning amaliyotga tatbiq etish imkoniyati mavjudligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati zamonaviy koreys va o‘zbek nasrining nazariyasini yaratishda, xususan, ayol ruhiyati, u yaratgan obrazlar galeriyasi yaratishda, global muammo sifatida oilaviy munosabatlarni tahlil qilishda hikoya, qissa hamda roman janrlarining ijodkorlar adabiy merosidagi ahamiyati, asarlarining badiiy-estetik qiymati masalalarni qiyosiy o‘rganishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalari amaliy ahamiyati uning materialidan oliy ta‘lim tizimida “Koreys adabiyoti”, “O‘zbek adabiyoti”, “Jahon adabiyoti tarixi”, “Qiyosiy adabiyotshunoslik”, “Hozirgi adabiy jarayon” kabi fanlar bo‘yicha ma‘ruza va seminar mashg‘ulotlarini o‘tkazishda, ixtisoslik fanlarining nazariy bazasini shakllantirishda, hamda dissertatsiyalarni yozishda foydalanish mumkinligida namoyon bo‘ladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O‘zbek va koreys nasrida Saida Zunnunova hamda Pak Kyong Ni (박경리) ijodining ahamiyati va ularning mahorati yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

koreys va o‘zbek ayollar nasrining poetik xususiyatlari, ayol yozuvchilar ijodiyoti va ularning adabiyotdagi mavqeyi, asarlarning mavzu va g‘oya doirasi, oila, muhabbat va jamiyat masalalari, milliy mentalitetning aks ettirilishi va global qadriyatlar bilan uyg‘unligi borasidagi natijalardan Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta‘lim bo‘yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan “English Access Microscholarship Program” loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 19-iyundagi 1839/02-raqamli ma‘lumotnomasi). Natijada, loyiha tadqiqotlari koreys va o‘zbek ayollar nasrining poetik xususiyatlariga egaligi bilan boyitilgan;

Pak Kyong Ni (박경리) va Saida Zunnunova ijodi asosida koreys “ayollar nasri”ning rivojlanishi, uning taraqqiyoti, oilaviy munosabatlar talqini hamda milliylik va universallikning o‘zaro uyg‘unligi borasidagi xulosalardan Xalq ta‘limi vazirining 2023-yil, 18-maydagi 156-son buyrug‘i asosida 2023-2024-yillarda bajarilishi nazarda tutilgan Al-201704-sonli “Umumta‘lim muassasalari bitiruvchilarining ona tili (o‘zbek tili) fani bo‘yicha malakasini baholash hamda 14 ta fandan test tizimini ishlab chiqish” nomli fundamental loyihada foydalanilgan (A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga

o'rgatish milliy tadqiqot institutining 2025-yil, 30-oktabrdagi 03-17-09-989-raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, pedagoglarning koreys va o'zbek adabiyotshunosligi borasidagi qarashlarining boyishiga xizmat qilgan;

yozuvchilar ijodida global muammolarning ifoda etilishi, jamiyatning bir ko'rinishi bo'lgan oilaviy munosabatlar, ayol qadri, uning jamiyatdagi o'rnini asosida makon va zamonda yuz beradigan voqelik ijtimoiy-psixologik farqliliklar asosida ochib beriladigan xulosalardan Navoiy viloyat teleradiokompaniyasining "Maxsus reportaj" ko'rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Navoiy viloyat teleradiokompaniyasining 2025-yil 24-iyuldagi 01-01/108-son ma'lumotnomasi). Natijada, ko'rsatuv va eshittiruv mazmun-mundariyasi ilmiy manbalar bilan boyitilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy anjumanda, jumladan 3 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilinib, muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha umumiy 12 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta, xorijiy jurnallarda 2 ta maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, uch asosiy boblar bo'yicha xulosalar, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 142 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**O'zbek va koreys adabiyotida ayol mualliflar ijodining shakllanish va rivojlanish bosqichlari**" deb nomlangan birinchi bobida o'zbek va koreys adabiyotida ayol yozuvchilar ijodiyoti milliy adabiyotning ajralmas bir bo'lagi ekanligi, bu ikki adabiyot va madaniyatda ayol yozuvchilar o'z asarlari orqali jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy masalalarni yoritishda muhim rol o'ynaganligi, adabiyot tarixi zarvaraqlarida o'z nomini qoldira olgan ayollar har ikki millat vakillarining yorqin ijodkorligi va ularning adabiy merosi yoritilgan.

Koreys mumtoz adabiyotida qirolicha Soxe (소혜왕후), Sin Saimdan (신사임당), Xvon Jin Xo (권진호) Non So Kvon (논서권), qirolicha Xongyon (원형) singari adibalarga duch kelsak, XX asr koreys adabiyoti vakillari sifatida Pak Kyong Ni (박경리), Kang Kyon E (강경애), Pak Van So (박완서), Cho Nam Ju (저남주), Cho Xe Jin (저해진), Xan Gan (한강) Nak Xe Sok (낙해석) singari ijodkorlar badiiy adabiyot sahifalarini yangi ijod namunasi bilan boyitayotganligi va zamonaviy adabiyotni yaratayotganligiga guvoh bo'lish mumkin. O'zbek adabiyotida esa Nodirabegim, Uvaysiy, Dilshodi Barno, Anbar Otin singari

shoiralarni mumtoz adabiyot vakili sifatida ta'kidlasak, Oydin, Zulfiya, Halima Xudoyberdiyeva, Oydin Hojiyeva, Zulfiya Mo'minova, Gulchehra Jo'rayeva, Gulchehra Nurullayeva, Halima Axmedova, Nafisa Abdullayeva, Zebo Mirzo, Go'zal begim, Marhabo Karimova, Zulfiya Qurolboy qizi singari ijodkorlar o'zbek adabiyoti zarvaraqlaridan mustahkam o'rin egalladi.

Koreys va o'zbek nasrida mavzu va g'oya doirasi: oila, muhabbat va jamiyat masalalari ikki adabiyotning o'xshash va o'ziga xos tomonlari, qirralari mavjudligi ayonlashadi. Bu esa ikki dunyoqarashni taqqoslashga imkon beradi. Ayniqsa, bu kabi xususiyatlarni mavzu madaniy qadriyatlar, oila munosabatlari asosida o'rganish ayollar dunyoqarashi va jamiyatdagi o'zgarishlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. O'zbek adibalaridan Saida Zunnunova hikoyalari oilaviy munosabatlarni aks ettirganligi bilan xarakterlidir. Uning "O'shanda ham kuz edi" hikoyasi o'zbek oilasidagi onaning mehr-muhabbatini targ'ib etganligi bilan ahamiyatli. Hikoyada Nizomjon, Bahri xola, Lutfi xola, Sodiq singari obrazlar berilgan. Bosh qahramon esa Nizomjon. U otasi va onasidan yetim qolgan yosh bola. Asarda o'gay ona ekanligini bildirmay, oilasini o'z mehri qurshoviga olgan Bahri xola ham o'rin egallagan. Barcha voqealar personaj, ya'ni Nizomjon tilidan bayon etiladi.

Koreys adabiyotida oila masalalari ko'pincha an'anaviy koreys oilasi tuzilishi bilan bog'liqdir. Oila ijtimoiy va madaniy normativlar asosida shakllanadi, bunda ota-ona, er-xotin va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar muhim rol o'ynaydi. XX asrda yaratilgan ko'pgina asarlarga nazar tashlansa, unda Koreyada oila an'analari kuchli, patriarxal tizim hukmronlik qilganligi ayonlashadi. Shu bois ham ko'plab asarlarda oila qadriyatlari va oilaviy munosabatlardagi ziddiyatlar yoritiladi, masalan, er-xotin o'rtasidagi muhabbat, ota-onaga bo'lgan hurmat va o'gay ota-onalar bilan bog'liq ichki qarama-qarshiliklarni aytib o'tish mumkin. Biroq XXI asrda yaratilgan nasriy asarlarda ota-ona, farzand, oila munosabatlari oilada hurmat madaniyati bilan belgilanadi. Koreys yozuvchilaridan Kim In Suk (김인숙) ham oila munosabatlariga alohida ahamiyat qaratadi. Uning "Dadamning oq krassovkasi" (하얀 고무신) hikoyasida mana shunday munosabatga duch kelish mumkin<sup>10</sup>.

Muallif oilaviy munosabatlarga to'xtalar ekan, ota xonadoni va kelajakda qurilishi mo'ljallangan xonadonga yuzma-yuz turgan qiz obrazini gavdalantiradi. U bemor dadasining qiyofasi orqali unga munosabatini ham bir-bir bayon etib boraveradi. Ijodkor muallif "men"idan foydalanar ekan, hikoyadagi qahramonlarning birortasiga nom bermaydi. Ya'ni hikoya avtobiografik xarakterga ega asardek xotirada o'rnashadi. Koreys qizlari o'z xonadonini yaratishga bel bog'lar ekan, uning turmush o'rtog'i oila boshliqlaridan rozilik olishini muallif, mana shu kichik parchada berishga muvaffaq bo'ladi. O'zbek oilalariga nazar tashlansa, bo'lajak kuyovlar oila bilan tanishish uchun qizlarning uyiga kelishadi va suhbat qurishadi. Bu kabi tushuncha, albatta, barcha oilaga taalluqli deyishdan yiroqmiz. Biroq bo'lajak kuyov bilan, uning madaniyati, odobi, xulqi va axloqi

---

<sup>10</sup> Kim In Suk. Dadamning oq krossovkasi.// Yoshlik jurnali, 2024. – №11. 45-b. Koreys tilidan Malohat G'afforova tarjima qilgan.

bilan tanishish lozimligini ko'pchilik oilalar, ayniqsa otalar to'g'ri qaror deb hisoblashadi. Demak, mana shu tushuncha koreys oilalarida ham mavjud bo'lib, asarda bu jarayonga alohida ahamiyat qaratiladi.

An'anaviy koreys mentalitetida ayollar uchun mehnat va xizmat qilish, o'z-o'zini qurbon qilish, va oilaga sodiq qolish kabi qadriyatlar dominantdir. Biroq, zamonaviy koreys ayollarining ijodida, ayniqsa, XXI asrda global qadriyatlar, gender tengligi, erkinlik va mustaqillik mavzulari keng tarqalgan. Ayollar ijtimoiy tengsizliklarga qarshi kurashadi, o'z huquqlarini himoya qilishadi va shaxsiy erkinlikni izlashadi. Bu tendensiya, koreys ayollarining adabiyotidagi yangi avlod tomonidan, an'anaviy qadriyatlarni modernizatsiya qilish va global qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishga olib keldi. Masalan, Bek Xi Na (백희나), Pak Van So (박완서), Shin Kyong Suk (신경숙), In Xi Gyon kabi zamonaviy koreys yozuvchilari o'z asarlarida ayollarning ichki dunyosini, ularning ijtimoiy, ruhiy va jismoniy holatini, ayollarning zamonaviy dunyodagi o'rnini tasvirlaydilar.

Bolalar adabiyoti yo'nalishida qalam tebratayotgan ijodkor Xvan Son Mi (황선미) hisoblanadi. Uning "Uchishni orzu qilgan tovuq" (마당을 나온 암탉) hikoyasi 29 tilga tarjima qilindi. Tadqiqotchi R.Xasanovanning ta'kidlashicha "Uchishni orzu qilgan tovuq" Xvan Son Mi (황선미)ning eng qiziqarli asarlaridan biri bo'lib, u rahm-shafqat, sevgi, e'tiqodga asoslangan. So'nggi paytlarda, hatto psixologlar ham, ona muhabbatiga, onalik e'tiqodiga va umid mavzulariga to'xtalmoqdalar"<sup>11</sup>. Xvon Son Mi (황선미)ning mazkur asari ham shu jihatdan muhim.

"Uchishni orzu qilgan tovuq" (마당을 나온 암탉) hikoyasida onalik baxtini his etishni istagan parranda xususida so'z yuritiladi. U – tovuq. O'zining baxtsiz hayotiga nur kiritish va bu nurni farzand sifatida qabul qilish, undan umid bog'lash asarning asosiy g'oyasidir. Hikoyada tovuq obrazi bosh qahramon sifatida talqin etilgan bo'lsa-da, biroq kelajakka intilgan, uni yorug' kunlar sifatida qabul qilgan shaxsni gavdalantirgandek bo'ladi, go'yo. Yozuvchi ona qalbi orqali boshiga tushayotgan barcha qiyinchiliklarni yengishga qodir qahramonga aylanadi. To'g'ri, asarda ona tovuq farzand ko'rish umidida, yovvoyi o'rdakni boqib oladi. Mana shu onalik hissi uni yanada ildamroq qarashga da'vat etadi. Shu bois ham hikoyani, baralla onalar madhi deyish mumkin bo'ladi. "자, 나를 잡아먹어라. 그래서 네 아기들 배를 채워라." 잎삭은 눈을 감았다. "나를 물었구나. 드디어....." 눈을 뜨자 눈부시게 파란 하늘이 보였다. 정신도 말끔하고 모든 게 아주 가뭇했다. 크고 아름다운 날개로 바람을 가르며 잎삭은 아래를 내려다보았다. 저수지와 눈보라 속의 들판, 그리고 족제비가 보였다. 비쩍 말라서 축 늘어진 암탉을 물고 사냥꾼 족제비가 힘겹게 걸어가고 있었다."<sup>12</sup>

O'zbek adabiyotida ham global qadriyatlar bilan milliy mentalitetni tasvir etish ustunlik qiladi. Shu bois ham o'zbek ayollarining adabiyotidagi milliy

---

<sup>11</sup> Хасанова Р. Вера, надежда и материнская любовь в произведении сонми хван «Курочка, которая мечтала летать» // Казанский вестник молодых ученых Дискуссионная трибуна. Заметки с конференции. 2018. Том 2. – №1 (4) file:///C:/Users/User/Downloads/vera-nadezhda-i-materinskaya-lyubov-v-proizvedenii-sonmi-hvan-kurochka-kotoraya-mechtala-letat.pdf.

<sup>12</sup> 선미황. 마당을 나온 암탉 // 황선미. – 서울: 사계절출판사.

mentalitet va global qadriyatlar o'rtasidagi uyg'unlik o'ziga xos xususiyatlarga ega. O'zbek ayollarining ijodida milliy mentalitet, o'zbek oilaviy qadriyatlari va an'anaviy ko'rsatmalar katta rol o'ynaydi. Mustaqillikdan keyingi davrda o'zbek ayollarining asarlari global qadriyatlar bilan uyg'unlashgan va bu o'zgarishlarni tasvirlashga intilgan.

Xullas, koreys va o'zbek nasrida oila, muhabbat va jamiyat masalalari bir-biriga o'xshash jihatlarni o'z ichiga olsa-da, har bir millatning o'ziga xos tarixiy va madaniy kontekstini hisobga olib, bu masalalar turlicha tarzda aks ettiriladi.

**“Saida Zunnunova va Pak Kyong Ni ijodiga umumiy nazar”** deb nomlangan ikkinchi bobda koreys va o'zbek adibalari – Saida Zunnunova va Pak Kyong Nilarning badiiy nasrida ayollar obrazi, ularning qalb kechinmasi tasviri haqida tahliliy ma'lumotlar berilgan.

Saida Zunnunova – o'zbek adabiyotining yorqin vakilasi, iste'dodli shoirasi va yozuvchisi sifatida tanilgan. Uning ijodi O'zbekistonda XX asrning ikkinchi yarmidagi adabiy jarayonlarda muhim o'rin egallaydi. Saida Zunnunova haqida so'z yuritilganda ham nasr, ham nazmda birdek ijod eta olgan yangi davr adabiyotining betakror asoschisi ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Saida Zunnunova hikoyalarida oila, turmush, jamiyatdagi turli masalalar yoritilgan. Ayniqsa, sevgi, muhabbat, vafo, sadoqat, e'tiqod kabi tushunchalar adiba hikoyalarining asosiy mavzusini tashkil etadi. Adibaning “Go'dak hidi”, “Qanoat”, “Olov”, “Bo'ylaringdan o'rgulay”, “Gulbahor”, “Do'stlik” kabi hikoyalari fikrimizni yaqqol misol bo'la oladi. Adibaning ilk asari “Salom senga” deb nomlangan. Shundan so'ng “Qizingiz yozdi” deya 1948-yilda ilk to'plamini yaratadi. Shu bilan bir qatorda “Yangi she'rlar”, “Gullar vodiysi”, “Qizlarjon”, “She'rlar”, “Bir yil o'ylari”, “Nilufar singari” she'riy to'plamlarini yaratgan bo'lsa; “Sodiq va Anor”, “Xayrixon”, “Surat bilan suhbat”, “Qo'shnilarim” singari dostonlarini; “Gulbahor”, “Povest va hikoyalar”, “Gulxan”, “Do'stlik”, “Qanot”, “Olov”, “Ko'chalar charog'on”, “Bo'ylaringdan o'rgulay” kabi qissa va hikoyalarini; “Ona”, “Ko'zlar” kabi pyesalarini taqdim etadi. Fikrimizcha, ayol qalbi nafaqat uning iffati bilan belgilanadi, balki uning ilmi bilan ham o'lchanadi. Bu haqda Shayx Ali Tantoviy o'zining “Ey qizim” asarida “jaholatning yagona qo'rquvi ayoldir. Chunki ayol o'rgansa, farzandlariga ham o'rgatadi. Shunday ekan, ayolga ilm berish, jamiyatga ilm berishdir!” – degan qarashlarini bayon etganki, bu qarashlar Saida Zunnunova ijodining kredosiga aylanib ulgurgan. Adiba asarlarida zamon, inson va jamiyat masalalari chuqur aks ettirilgan. Uning ijodiy yo'nalishlari quyidagi mavzularni o'z ichiga oladi:

- ayolning jamiyatdagi o'rni;
- ijtimoiy adolat va zamonaviylik;
- milliy madaniyat va an'analar;
- tabiat va inson sevgisi;
- muhabbat va insoniy tuyg'ular;
- vatanparvarlik va xalq dardi;
- tarbiyaviy va ma'rifiy.

Saida Zunnunovanning ijodida ayollarning jamiyatdagi o'rni, huquqlari va ular duch keladigan muammolar asosiy mavzulardan biri hisoblanadi. Shoiraning

she'rlari va nasriy asarlarida o'zbek ayolining oila, ish va jamiyat hayotidagi roli keng yoritilgan.

Saida Zunnunovaning "Qo'llar" hikoyasida mehnatkash, jafokash Malika xola obrazini yaratadi. Asarning voqeligi ikkinchi jahon urushi bilan bog'liqlikda zuhur topgan. Malika xola tipiklashtirilgan obraz. U o'sha davr ayolining tipik vakilasi. Chunki, Malika xola o'zbek ayolining boshidan kechirgan barcha ko'rgiliklarini ko'rgan, mehnatsevarligi sabab hayotini o'zgartira olgan, faqat oila, turmush o'rtog'i oldidagi mas'uliyatini his etgan hamda farzandlariga sadoqatini bera olgan shaxs. Ayniqsa, bu xususiyatni *uzuk* detali orqali beriladi, obraz yanada yorqinroq bo'lib gavdalanadi: *"Malika xola o'rnidan turib deraza pardasini tushirdi-da, chiroqni yoqib qo'yib, yana kelib o'rniga o'tirdi. Idish-tovoq yuvganidanmi, qo'lidagi uzukning ko'z atroflari xiralashib qolganday edi. Malika xola igna bilan uni yaxshilab tozaladi. Keyin kaftiga olib ancha vaqtgacha tikilib o'tirdi-da, yana ohista barmog'iga soldi.*

*Bu uzukni to'y kuni eri taqib qo'ygan edi. O'sha paytda uzukni bezagan bu tosh ko'zlar, keyincha uning ko'zlariga aylandi-yu, hamma joyda Malikaxonni kuzatib turdi, qoramoy ichida kulib qaradi, yiqilmoqchi bo'lganda qo'lidan tortdi. Bu uzuk taqilganda, uning qo'llari qandoq edi? Tiqmachokday, oppoq, hayotning og'ir mashaqqalariga hali urilmagan beg'ubor, nozik qo'llar edi."*<sup>13</sup> Adiba Malika xola obraziga katta yuk yuklaydi. U turmush o'rtog'ini ikkinchi jahon urushi sabab yo'qotgan. Oila, ro'zg'or tashvishini o'z bo'yniga olgan. Oila oldidagi mas'uliyatini his qilgan ayol qiyofasida gavdalantiradi. Asarda Malika xola obraziga muallif nigohi bilan qaraymiz. Muallif nigohi esa uning qo'llariga qaratilgan.

Hikoyani o'qish jarayonida ayol hayoti va uning bu hayotdagi vazifasi xususida so'z yuritilganligiga guvoh bo'lamiz. Chunki asarda Malika xola ruhiyatini ochuvchi asosiy detal uzuk, keyinchalik boshqa qo'llarning barmog'iga taqiladi. Unga ham ziynat sifatida emas, balki mas'uliyat sifatida in'om etiladi. Hikoyada faqat Malika xolaning e'tiqodi mana shu detal orqali ochiladi. Malika qachonlardir oilada malika maqomiga erishgandek. Biroq hayoti bu nomga nomunosib bo'ldi. Chunki ijodkor ayol zimmasiga ham ayollikni, ham erkak vazifasini yuklaydi.

Koreya adabiyotida o'ziga xos uslubda ijod etgan adibalardan biri Pak Kyong Ni (박경리)dir. U yaratgan asarlar nafaqat dolzarb masalalarni qamrab olishi bilan, balki ayollarning jamiyatdagi, hayotdagi, oiladagi o'rnini ko'rsatishi bilan ham ahamiyatli. Ijodkor o'z asarlarida ayol obraziga alohida to'xtalar ekan, uning o'ziga xos xususiyatlari, fazilatlarini, ijtimoiy hayotdagi o'rnini masalasiga alohida urg'u beradi. Pak Kyong Ni (박경리)ning dastlabki hikoyalaridayoq ayol obrazini mehr bilan tasvirlabgina qolmay, ularni uch xil tasvirdagi ayollarga ajratadi. Birinchi tasvirdagi ayol – benuqson, ajoyib fazilatlarga ega, asosiysi o'zini, o'zligini axtarayotgan shaxs, qolaversa oilaviy munosabatlarni hanuzgacha o'z zimmasiga olmagan qahramon sifatida talqin etiladi. Ikkinchi tasvirda esa, oila

---

<sup>13</sup> [https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/saida-zunnunova-1926-1977/saida-zunnunova-qo'llar-hikoya.06.12.2024-yil;10:48 da murojaat etildi.](https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/saida-zunnunova-1926-1977/saida-zunnunova-qo'llar-hikoya.06.12.2024-yil;10:48%20da%20murojaat%20etiladi)

farovonligi yo'lida ma'suliyatni kichik yelkalariga olgan ona, uchinchi tasvirda esa hayotni muhabbat asosida qurishga intilayotgan ehtirosli ayol. Yozuvchi ayol obrazini mana shunday uch tasvir orqali berishdagi asosiy maqsadi, ayollarning xoh u tinchlik davri, xoh u urush davri bo'lsin, ular o'zligini unutmeydigan shaxs sifatida taassurot uyg'otishdan iborat. Bu esa Koreya fuqarolar urushi, Koreya-Yaponiya urushidan keyingi jamiyat makonida muqarrar ravishda hayot uchun, omon qolish uchun kurashuvchi shaxs sifatida e'tirof etilishi bilan ahamiyatlidir. Hayotda omon qolish uchun yashayotgan ayol, yuqorida ta'kid etganimizdek, har uch tasvirning yig'indisini, leymotivini tashkil etib beradi. Bu kabi tasvir yordamida adiba, ayol obrazining ichki ziddiyatlarini tushunishga yo'l ochadi. Natijada hikoyalarida u yaratgan La Yon, Choi So Xi, La Bel, Bong Sun, Vol Song Im kabi obrazlar sifatida o'quvchilarga taqdim etiladi.

Pak Kyong Ni (박경리) XX arsning o'rtalarida adabiyotga kirib keladi. U 1955-yilda "Kom Dong" sarlavhali qisqa hikoyasini yaratdi. U 1955-yilda "Hisob-kitob" (계산) va 1956-yilda "Hamma narsa oq, hamma narsa qora" (흑흑백백) nomli hikoyalari bilan adabiyot olamiga kirib boradi. 1962-yilda "Dorixonachi Kimning qizlari" (김약국의 딸들) romani bilan e'tibor qozonadi. Asarlarida Koreya urushi davridagi beva qolgan ayollar hayotini tasvirlagan, bu esa uning shaxsiy tajribalariga asoslangan. Adiba ijodini ertaroq boshlagan bo'lsa-da, biroq nasriy asar yozishga birdan kirishmaydi. XX asrning o'rtalariga kelibgina nasriy asarlarga qo'l uradi. Shu bois ham ijodining boshlanish qismida 5 she'riy to'plamni uchratish mumkin. Uning 48 qissasi, 10 ta nasriy to'plamini o'quvchilariga taqdim etadi. Bugungi kunda uning asarlari 20 tomlikda joy olgan. Uning asarlari koreys adabiyotining yorqin sahifalari sifatida e'tirof etilganligi bois, 125 dan ortiq tadqiqot ishlari amalga oshirilgan<sup>14</sup>. Hatto ijodkorning porloq xotirasini abadiylashtirish uchun, "Pak Kyong Ni" nomidagi tadqiqot axborot xizmati ham shakllantirilgan.

Adiba ijodi ko'pgina tadqiqot ishlari uchun material vazifasini o'tadi. 2010-yilda yaratilgan 김진숙 ning "박경리 중기 장편소설의 갈등 구조 연구: "표류도", "김약국의 딸들", "시장과 전장" 을 중심<sup>15</sup> tadqiqotida adiba ijodining ilk bosqichlariga e'tibor qaratiladi. Kim Jin Sook (김진숙) ning ta'kidlanishicha, adibaning ijodi ikki asosiy bosqichga bo'linadi. Birinchi bosqich "Yer" (토지) romani yozilgungacha bo'lgan vaqt hisoblansa, ikkincisi "Yer" (토지) romani yozilgandan so'nggi davrlarni qamrab oladi. Asosan, "Hamma narsa oq, hamma narsa qora" (흑흑백백) "Ishonchsizlik davri" (불신시대), "Shu yerlik va mushuk" (영주와 고양이), "Zulmat davri" (암흑시대) singari asarlari borasidagi izlanishlarini taqdim etadi. Unda aytilishicha, Pak Kyong Ni (박경리)

<sup>14</sup>김명준, 「박경리의 『토지』 연구-三代談의 갈등(葛藤)구조를 중심으로」, 건국대학교 석사학위 논문, 1992.; 김수영, 「박경리 초기 장편소설의 인물 유형 연구」, 서울여자대학교 석사학위 논문, 2001.; 김은경, <sup>a</sup> 박경리 문학연구-가치의 문제를 중심으로 4, 서울대학교 박사학위 논문, 2008.; 김예니, 「박경리 소설의 비극성 연구」, 성신여자대학교 박사학위 논문, 2015.; 김정희, 「박경리의 『토지』 연구-공동체의 형성과 해체 양상을 중심으로」, 상지대학교 박사학위 논문, 2015, 12.

<sup>15</sup>김진숙. 「박경리 중기 장편소설의 갈등 구조 연구: 『표류도』, 『김약국의 딸들』 『시장과 전장』 을 중심으로」. 서울시립대 석사논문, 2010.

romanlarining shakllanishida yuqorida qayt etilgan asarlarning o‘rni beqiyosligi, bu asarlar ijodkorga eksperimental omillarini o‘z ichiga olgan dastlabki izlanishlar sifatida baholash mumkin. Biroq bu asarlarda umumiy xususiyat borki, ular quyidagilardan iborat: *birinchidan*, barcha asarlarga xos xarakter bu – Koreya urushida eridan ayrilgan beva ayollardir; *ikkinchidan*, muallif o‘z personajlarini boshdan kechirgan voqelik asosida shakllantiradi, natijada bu personajlar ijodkor dunyosini osongina qamrab oldi; *uchinchidan*, jamiyatda bo‘layotgan hodisalar qalamga olingan edi. Shu bois ham dastlabki yaratilgan asarlarida paydo bo‘lgan bu kabi xususiyatni anglatuvchi belgilar ijtimoiy haqiqatni ifoda eta oldi. Shuni qo‘shimcha qilib ta’kidlashimiz mumkinki, adiba o‘zining xarakteriga xos xususiyatlarni personajlarga taqdim etadi. Ya’ni o‘zini personaj sifatida taklif etadi. Bu kabi omil keyingi yaratilishi lozim bo‘lgan romanlar uchun mashq vazifasini bajardi. Uning asarlarining kattagina qismida fojiali taqdirilar tasvirlanadi. “Dorixonachi Kimning qizlari” (김약국의 딸들) asari esa fikrimizni isbotlaydi. “Dorixonachi Kimning qizlari” (김약국의 딸들) asarida bitta insonning fojiasini butun koreys oilasi fojiasiga tenglashtirdi. Shu bois ham koreys millati mazkur asarni, millatni taqdirini ifoda etgan asar sifatida tan olisha boshladi. Adiba asarlari borasidagi Kim In Kyong (김은경)ning “[박경리 장편소설에 나타난 인물의 '가치'에 대한 태도와 정체성의 관련 양상: < 김약국의 딸들>, <파시>, <시장과 전장>을 중심으로]”da keltirilgan fikrlar ham muhim<sup>16</sup>. U “Dorixonachi Kimning qizlari”, “Mavsumiy baliq bozori”, “Bozor va urush” singari asarlarini o‘rganar ekan, insonning qadr-qiyamati haqida xulosalar yuritadi. Pak Kyong Ni (박경리) nasrida ayol obrazi va uning ruhiyatini yoritish faqat oilaviy baxt tushunchasi bilan bog‘lanmaydi. Uning diqqat markazida “Gunohkor ayol” va “Avliyosifat ayol” tasviri asosiy o‘rinni egallaydi. Mazkur fikrimizga koreys adabiy tanqidini tadqiq etish jamiyati tadqiqotida olib borilgan izlanishlar ham misol bo‘la oladi<sup>17</sup>.

Saida Zunnunova va Pak Kyong Ni (박경리) ijodiy faoliyatida ham mana shu milliylik va universallikning uyg‘unligi chuqur namoyon bo‘lgan. Ularning asarlarida o‘z xalqlari madaniyati, an‘analari va tarixiy tajribasi global gumanistik g‘oyalar bilan qo‘shilib ketadi. Adibalar ijodiga xos bo‘lgan badiiy uslub va mavzularni tahlil qilish orqali ushbu uyg‘unlikni to‘liq yoritish mumkin.

Saida Zunnunova nasriga e’tibor qaratilsa, o‘zbek adabiyotida milliy ruh va universal qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan ijodkorlardan biri sifatida talqin etish mumkin. U nasriy asarlari orqali insoniy kechinmalar, vatanparvarlik, sevgi va mehr-oqibat mavzularini yuksak badiiy darajada yoritadi. Shu nuqtayi nazar orqali adibaning bir qancha hikoyalari va qissasiga e’tibor qaratamiz. Adibaning “Shu uyning bekasi” hikoyasida xalq hayoti bir xonadon bekasi hayoti orqali tasvir

---

<sup>16</sup>김은경. 「박경리 장편소설에 나타난 인물의 '가치'에 대한 태도와 정체성의 관련 양상: < 김약국의 딸들>, <파시>, <시장과 전장>을 중심으로」. 癡국어국문학. 2007.9 월.

<sup>17</sup> 한국문예비평연구. 2021, vol., no.70, pp. 75-108 (34 pages). DOI : 10.35832/kmlc..70.202106.75 발행기관 : 한국현대문예비평학회 이 기관으로 동향 분석 <https://www.kci.go.kr/kciportal/ci/sereArticleSearch/ciSereArtiView.kci?sereArticleSearchBean.artId=ART002732> 125

etiladi: *“Umriniso buvi derazalarni lang ochib yubordi. Doim berk turaverganidan zax, nam hidi to‘lgan uyiga oftob nuri aralash iliq havo kirdi. Elektr plita ustiga suv to‘ldirilgan choynakni qo‘yib, hovliga chiqdi. Bultur ikki-uch jo‘yak pomidor bilan rayhon, jambil ekilgan yerda qolgan uncha-muncha pollar ustiga shama to‘kilibdi. Dorda erkaklarning ko‘ylagi bilan yonma-yon sochiq osig‘liq. Kir tog‘orasi ham hovlining o‘rtasida mag‘zavasi bilan qolaveribdi. Umriniso buvi uni kir o‘raga to‘kib, tog‘ora orqalarini yaxshilab yuvdi-da, bir chetga devorga to‘nkarib qo‘ydi. Nima qilsa ham bechora bolalar ovqat pishirishadi, idish-tovoq, kir yuvishadi. Dazmol bosganlari-chi!”*<sup>18</sup>. Mazkur parchada Umriniso buvining kundalik yumish ishlari bilan tanishamiz. Adiba bu obrazni mehr-shavqatga to‘la qalb egasi sifatida o‘quvchisiga taqdim etadi. O‘zbek xalqining buvilariga xos bo‘lgan yumushlar orqali obrazni milliylikka yaqinlashtiradi.

